

YOSH OILALARNING IJTIMOIIY VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI

Fayziyeva Nodira Sobirovna- JDPU, Umumiy psixologiya kafedrası o'qituvchisi
Tolmasova Maxliyo Axat qizi-JDPU, Fizika va texnologik ta'lim fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh oilalarning oilaviy hayotlarini barqarorlashtirishda yosh kelin-kuyovlarning oilaviy hayotga biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, axloqiy jihatdan yetukliklari, shaxslararo munosabatlar psixologiyasining o'ziga xos sir-asrorlarini o'rganganliklari, emotsional hissiy munosabatlarning xususiyatlarini bilishlari muhim ahamiyatga ega. Chunki, oilaning mustahkamligi ko'p jihatdan oila qurayotgan yoshlarning oilaviy hayotga qay darajada tayyor ekanligiga bog'liqdir.

Kalit so'zlar: yosh oila, nikoh, shaxslararo munosabat, turmush qurish yoshi, psixologik muammolar, biologik, ijtimoiy, psixologik, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy, axloqiy yetuklik, yigit va qizlar, oilaviy hayotga tayyorlash.

Yosh oila deganda ko'z oldimizga doim endi turmush qurgan, yangi hayot ostonasiga endi qadam qo'ygan o'g'il va qizlarimiz keladi. Ular har jihatdan oila qurishga tayyorgarligi, ya'ni balog'at yoshidan o'tgan, mutloq shaxs sifatida shakllangan hamda jismoniy va aqliy jihatdan tayyor bo'lgan yigit va qizlarimizni turmushga tayyor deb ayta olamiz. Oila qurish yoshi aynan qat'iy belgilab qo'yilgan va unga talablar mavjud. Masalan: har bir shaxs o'n sakkiz yoshdan oshgan bo'lishi lozim. Psixologlarimiz yigitlarni yigirma besh yoshda, qizlarni esa yigirma yoshda turmush qurishlarini tavsiya etadilar. Chunki bu yoshga yetganlarida ular katta hayot ostonasiga qadam qo'yishga tayyor deb hisoblaydilar. Bundan tashqari ular ijtimoiy va moddiy jihatdan ham oilani ta'minlay oladilar.

Umuman olganda fanda yosh oilani tavsiflaganda quyidagi asosiy mezonlar inobatga olinadi:

Juda yosh oila - nikohga kirgan vaqtdan toki to'rt yilgacha;

Yosh oila - besh yildan to'qqiz yilgacha;

O'rta oilaviy hayot muddati - o'n yildan , o'n to'qqiz yilgacha;

Katta oilaviy hayot muddati - yigirma yil va undan ortiq muddat turmush kechirganlar oilasi.

Oilaga etuklik bu - oila quruvchi yoshlarning jismoniy, jinsiy, huquqiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy, psixologik kabi jihatlaridir. Shaxsning psixologik etukligi, dastavval, uning turli hayotiy vaziyatlar va sharoitlarni xushyor baholay olishida ko'zga tashlanadi. Bu xushyorlik, amaliylik, voqelikni to'g'ri baholay olish, shaxsda o'zining yutuq va kamchiliklarini bilish, malaka va qobiliyatini etarlicha baholay olishda namoyon bo'lishi kerak. Afsuski, ko'pincha yoshlarning o'z qobiliyatlarini orttirib baholab, o'z oldilariga erishib bo'lmaydigan maqsadlarni

qo'yish xollariga duch kelinadi. Ayniqsa, oilaviy hayotni tasavvur qilish, unda o'z o'rini baholash masalasida yoshlarimizning o'zlarini orttirib baholashi, oilaviy hayotdan mumkin bo'lganidan ko'proq narsani talab qilish tufayli ko'proq xatoga yo'l qo'yish xollari kuzatiladi. Psixologik etuklikning muhim mezonlaridan biri shaxsni oilaviy muammolarni adolatli haletishga xizmat qiluvchi o'z mustaqil fikri, qarashi, pozitsiyasini bilishi, zarur bo'lganda oila borasida o'z qarashlarini himoya qila olishidir.

Respublikamizda keyingi yillarda oila-nikoh munosabatlari o'zgarib bormoqda. Bu boradagi o'zgarishlarga:

- 1) oilaning jamiyat oldidagi funksiyalarining o'zgarib borishi;
- 2) oila a'zolari sonining va tug'ilishning kamayishi, murakkab ko'p oilali tipdan, alohida mavjud bo'lgan oilalar tipiga aylanib borayotganligi;
- 3) oilaviy munosabatlar tizimida er-xotin funksiyalarining va oilaviy rollar haqidagi ijtimoiy tasavvurlarning o'zgarib borayotganligi;
- 4) ayollardagi reproduktiv ustanovkalarining o'zgarib borayotganligi kabilarni kiritish mumkin.

Ma'lumki, insoniyat jamiyat taraqqiy etib borgan sari odamlarning o'zlari ham, o'zaro munosabatlar ham, ayniqsa shaxslararo munosabatlar orasida eng samimiy, eng yaqin bo'ladigan oilaviy munosabatlar ham takomillashib, o'ziga xos tarzda murakkablashib boradi. Sababi hozirgi zamon fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarish munosabatlari, vositalari, qishloq xo'jaliklari, sanoat ishlab chiqarish, umuman xalq xo'jaligining barcha jabhalarida yangi texnologiya, texnik jarayonlarning jadal joriy etilishi bevosita shu jarayonlarning yaratuvchisi, ishtirokchisi bo'lgan inson omiliga, inson shaxsiga o'ziga xos yangicha talablar qo'ymoqda. Ishlab chiqarish munosabatlari, jamiyat taraqqiyoti bir tomondan, odamlarning o'zlarida ro'y berayotgan ijtimoiy-psixologik, fiziologik va boshqa o'zgarishlar o'zaro muloqat munosabatlari doirasining ma'lum darajada chegaralanib qolishiga, ularda o'tmishdoshlarimizda kuzatiladigan tabiiylikning ma'lum darajada buzilishiga va oqibatda inson ruhiyatida mumkin qadar hissiy, emotsional zo'riqishlarning yuzaga kelishiga asos bo'lmoqda. Bularning ta'siri oilaviy hayot va undagi psixologik iqlimda o'z ifodasini topadi. Maxsus adabiyotlarda yozilishicha va o'tkazilgan tadqiqot natijalaridan kuzatilishicha, so'nggi 100 yil ichida odamlarda kuzatiladigan akseleratsiya jarayoniga ko'ra ularning jinsiy, fiziologik balog'atga etishi 2-3 yil ilgarilab ketgan. Bundan 100 yilcha oldin yoshlarni jinsiy balog'atga etish davri 15-16 yoshga to'g'ri kelgan, hozir esa bu holat o'rtacha 12-13 yoshlarga to'g'ri keladi.

Ilgarigi o'smirlar 15-16 yoshlarida oilaviy hayotga etuklik talablaridan biri bo'lmish jinsiy etuklikka, balog'atga etar ekanlar, ular aksariyat hollarda shu yoshga kelib o'sha davrlar uchun xos va lozim bo'lgan, unchalik murakkab bo'lmagan de'qonchilik, chorvachilik, hunarmandchilik sir-asrorlaridan deyarli boxabar bo'lganlar (chunki u vaqtlarda bolalarning odatda 13-14 yoshida shogirdlikka berishgan), o'sha davrdagi ishlab chiqarish munosabatlari va

texnologik jarayonlar ulardan maxsus yoki oliy ma'lumot talab qilinmagan, 2-3 yil ustoz ko'rgan shogird 16-17 yoshida o'zi ish yuritadigan mutaxassisga aylangan. Mabodo u shu vaqtda oila quradigan bo'lsa, o'z hunari orqali me'nat qilib o'zini va oila a'zolarini iqtisodiy jihatdan ta'minlay olishi mumkin bo'lgan. Bundan tashqari, u vaqtlardagi 18-20 yoshli yigitmahalla -ko'yda, jamoatchilik orasida ma'lum darajada ijtimoiy etuk shaxs sifatida qabul qilingan, turli tadbirlar, marosimlarda etuk ishtirokchi sifatida qatnashishi mumkin bo'lgan, ya'ni uning ijtimoiy jihatdan balog'atga etganligi jamoatchilik tomonidan tan olingan. SHaxsning oila va jamiyat oldida o'ziga xos mas'uliyatni his qilishi esa uning psixologik etukligi alomatlaridan biri bo'lib xizmat qilgan.

Umumiy oilalar miqdoriga nisbatan qaralganda yosh oilalar salkam qirq foizni tashkil etadi. Demak, oila sonining ko'pligi, ular orasida moddiy va ma'naviy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtojlari ham bo'lishi tabiiy ekanligini ko'rsatadi va hukumatimiz shaxsan Prezidentimizning bu boradagi siyosati aynan yosh oilaning manfaatlarini himoya qilish yo'lida say'i-harakatlaridan biridir. Oila muqaddas tushuncha va dargoh, kichik vatan hamdir. Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev: "Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan tinch bo'ladi" deydilar. Prezidentimiz bu jumlaning bejiz aytilmaganlar. Davlatni kuchli, mustahkam qilish uchun uning bir bo'laki bo'lgan oilaga katta e'tibor qaratish kerak ekanligini ta'kidlaganlar. Oila qurish mas'uliyatli ekanligini tushungan ko'pchilik yoshlar erta turmush qurishga qarshilar va bunday fikrlaydiganlar yildan yilga soni ortib, ko'payib bormoqda. O'ttiz va undan ham katta yoshda turmush qurish ko'p kuzatilmoqda. Bu jarayon ayniqsa Yevropa davlatlarida keng tarqalgan. Bu vaziyat bir tomondan juda yaxshi. Lekin tanganing ikkinchi tomoni ham bo'lganidek, kech turmush qurishning ham salbiy tomonlari ham mavjuddir.

Yurtimizda hozirgi kunda psixologiya fanining rivojlanib borishi natijasida oilalardagi psixologik muammolarni hal etishda ularga murojaat qilish o'rinli hisoblanadi. Yosh oilalarda psixologik muammolarning bo'lishi tabiiy holdir va bu har bir yosh oilada kuzatiladi. E'tibor bergan bo'lsak oila qurganiga ko'p bo'lmagan ammo ajralish arafasida turgan yoshlar ko'pincha "bir-birimizni tushunmayabmiz" deyishadi. To'g'ri tushunmasliklari mumkin lekin tushunish uchun vaqt va albatta sabr-toqat kerak. Masalan:oilalarga qurgan ikki yosh 15 yildan so'ng bir-birlarini so'zsiz tushuna oladilar. Bu isbotlangan fakt. Gapirmasdan qarashlaridan tushuna oladigan bo'lib ketishadi. Har bitta oila psixologga borib qanday muammosi bo'lsa ulardan maslahatlar olib turishlari kerak deb o'ylayman.

Xulosa qilib aytganda, yosh oilalarda bo'ladigan ijtimoiy va psixologik muammolarni hal qilish, muammoni -muammoligicha qoldirmaslik kerak. Qadrli, sevimli kishilarning bir-birlariga yon berishi, hurmatda bo'lishi, bosiqlik, shirinso'zlik, mulozamat, ko'ngilni keng qilish, gapni yaxshi tomonga burish, xasrat, gina-qudratdan yiroq bo'lish bilangina baxtni asrab qolish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Shavkat Mirziyoyev «Oila kichik vatan, oila tinch bo'lsa, baxtli bo'lsa, vatan

tinch bo'ladi» *Xabar.uz* 22.01.2018

2. V.M.Karimova. Oila psixologiyasi: Darslik. Pedagogika oliygohlari talabalari uchun // T.: -Fan va texnologiya, 2008. - 170 b.;

4. Kamolova, S. (2021). Ta'lim jarayonida interfaol usullardan foydalanishning afzalliklar. *Jurnal Pedagogiki i psixologii v sovremennom obrazovanii*, (2).

6. Собировна, ФН (2024). Психологические особенности учащихся начальных классов. *Wire Insights: Журнал Innovation Insights* , 2 (2), 16–18.

9. Файзиева, Н. С. (2023, January). СОСТОЯНИЕ ИЗУЧЕНИЯ ПРОБЛЕМЫ ОБЩЕНИЯ В ПСИХОЛОГИИ. In *International Conference of Education, Research and Innovation* (Vol. 1, No. 1, pp. 121-126).

10. Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.

11. Нодира, Ф. (2018). Профессионально значимые качества и умения преподавателя иностранных языков. *Достижения науки и образования* , 1 (7 (29)), 83-85.

12. Fayziyeva, nodira. (2024). BOSHLANG'ICH MAKTAB YOSHDAGI BOLALARDA ALOQA KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISH SHAKLLARI VA USULLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, (I). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/8721>

13. Sobirovna, F. N. (2024). Psychological Characteristics Of Primary School Students. *Wire Insights: Journal of Innovation Insights*, 2(2), 16-18.

14. Fayziyeva, N. (2022). KICHIK YOSHDAGI MAKTAB BOLALARNING KOMMUNIKATIV QOBILIYATLARINI SHAKLLANTIRISH. *Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры*, 2(12), 211-215.

15. Kamolova, S. (2022). АБУ РАЙХОН БЕРУНИЙНИНГ МАЪНАВИЙ СОҒЛОМ АВЛОДНИ ТАРБИЯЛАШ ҒОЯСИ. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 2(2). извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/5568>

16. Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. *Fan va innovatsiyalar* , 2 (B4), 267-272.

16. Odiljonova, X. (2024). O'QUVCHILARDA VALEOLOGIK TAFAKKURNI O'STIRISHNING NAZARIY ASOSLARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 3-11. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/941>

17. Amonxonova, Y. (2024). "MEN" KONSEPSIYASI INSONING O'ZINI-O'ZI ANGLASHI MASALALARI. *Журнал Педагогики и психологии в современном образовании*, 4(1), 44-49. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>

18.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING XORIJIY MAMLAKATLARDA O'RGANILISHI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>

19.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARI RAHBARLARINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA INNOVASION BOSHQARUVI HAMDA AXBOROT TA'MINOTI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4(1), 12-20. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9412>

20.Qarshiboyeva, G., & Odiljonova, X. (2022). ЎҚУВЧИЛАРДА ВАЛЕОЛОГИК БИЛИМНИ ОШИРИБ БОРИШ АСОСЛАРИ. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 2(5).

21.Odiljonova, K. (2023). O'QUVCHILARDA SOG'lom tafakkurni rivojlantirishning psixologik xususiyatlari. Fan va innovatsiyalar , 2 (B4), 267-272.

22.Abdiazizkhan, A. Y. (2023). PSYCHOLOGICAL ASPECTS OF ETHICAL ATTITUDES IN STUDENTS BASED ON AXIOLOGICAL APPROACHES. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 15, 216-220.

23.Alibekov, D. (2024). TA'LIM TIZIMINING BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA ZAMONAVIY INNOVATSION TEXNOLOGIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 4(1), 27-31. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9447>

24.Alibekov, D. (2020). Socio-philosophical basis of educational system development. ISJ Theoretical & Applied Science, 10 (90), 24-26. Soi: <http://s-o-i.org/1.1/TAS-10-90-6> Doi: <https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2020.10.90.6>

25.Alibekov D. СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЕ ОСНОВЫ РАЗВИТИЯ СИСТЕМЫ ОБРАЗОВАНИЯ //Журнал музыки и искусства. – 2021. – Т. 2. – №. 2.

26.Alibekov, Davron. “Sharq mutafakirlarining ta'lim-tarbiya borasidagi qarashlari.” *Журнал музыки и искусства* 2.1 (2021).

27.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(1).

28.Alibekov, D., & Abduraqibova, D. (2023). TA'LIM TIZIMINING STRATEGIK RIVOJLANISHIDA INNOVATSIYALARNING AHAMIYATI. Журнал Педагогике и психологии в современном образовании, 3(1).

29.Alibekov, D. (2023). JAMIYAT TARAQQIYOTIDA TA'LIM TIZIMIGA INNOVATSION YONDASHUVNING STRATEGIK AHAMIYATI.

Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(3), 168-173. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9137>

30.Amonxonova, Y. (2024). INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA MAKTAB RAHBARINING ZAMONAVIY TA'LIM TIZIMIDA KASBIY KOMPETENTLIKNING MOHIYATI VA UNING XORIJIY MAMLAKATLARDA O'RGANILISHI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 50-61. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9514>

31.Amonxonova, Y. (2024). "MEN" KONSEPSIYASI INSONING O'ZINI-O'ZI ANGLASHI MASALALARI. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 44-49. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9513>

32.Odiljonova, X. (2024). "MEN" KONSEPSIYASIGAYONDASHUVLARNING O'ZIGA XOSLIGI . Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 4(1), 62-70. извлечено от <https://ppmedu.jdpu.uz/index.php/ppmedu/article/view/9515>